



ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI

Ixtiyorjonova Gulafshon Bunyodjonovna

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ixtiyorjonovag@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda adabiy asarlarni chuqur anglashga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot darsi, ta'lim samaradorligi, badiiy tafakkur, mustaqil fikrlash, adabiy tahlil, pedagogik yondashuv, o'quv jarayoni, metodika

Bugungi kunda tezlik bilan o'zgarayotgan, jadallashib rivojlanayotgan dunyoda xalqimiz ertasiga ishonch bilan intilayotgan, to'g'ri tanlangan taraqqiyot yo'lidan og'ishmaslik uchun yosh avlodni yangicha tafakkur va yangicha yondashuvlar asosida tarbiyalash muhimligi barchaga ayon. Hozirda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlarning negizida ham ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirish yotadi. Hozirgi bolalarning olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi oldingi yillarga nisbatan ancha farqli ekanligi ham sir emas. Yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Xozirgi kunda adabiyot darslarida o'quvchilarni darsga jalb etish va uning qiziqitira olish, esida tez saqlanib qolishi uchun turli xil metodlardan foydalanish juda yaxshi samara bermoqda. Dars jarayonida turli metodlardan foydalanish o'qituvchidan o'z ustida ishlashni, o'quvchidan fikrini bemalol bayon eta olishga o'rgatadi. Ma'lumki hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud, ulardan ko'pi sinovdan samarali o'tgan. Interfaol metodlar deganda birinchi o'rinda hayolimizga keladigan narsa biz zamonaviylashgan maktab emasmiz, bizda electron doska zamon talabidagi sinf xonalari yo'q deb o'ylaymiz. Lekin oddiy oq qog'oz rangli qog'ozlar turli o'quv qurolaridan foydalangan holda darsni juda qiziqarli va esda qolarli qilib o'tish mumkin. Adabiyot darsida eng ko'p qo'llaniladigan metod o'qituvchining bayoni metodidir. Bayon metodida o'qituvchi o'tayotgan yangi mavzusini og'zaki bayon qiladi. O'tayotgan mavzusi oldindan o'quvchilarga qisman tanish bo'lgan bo'lsa notanish qismlari haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Yangi o'tilayotgan mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tilsa dars samarasi yana ham qiziqarli bo'ladi. Suhbat o'quvchilar nutqini oshiradi. So'zlashuv madaniyatiga o'rgatadi. O'tilganlarni mustahkamlash uchun test metodidan xam foydalaniladi. Xar chorak davomida o'quvchilarga o'zlari test tuzish metodini qo'llansa yil davomida yig'ilgan testlarni o'quvchilarning o'zlariga berish orqali mavzularni mustahkamlash mumkin. Dars yanada qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.

Ta'limda bu kabi yangicha yondashuvlar ayniqsa adabiyot fani uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi, adabiyot – bu shunchaki faktlar majmuasi emas, balki shaxsda badiiy-estetik didni shakllantiruvchi, axloqiy-me'yoriy qarashlarni barqarorlashtiruvchi, ijtimoiy hayotga nisbatan ongli yondashuvni o'rgatuvchi noyob vositadir. Adabiyot darslarining samaradorligini oshirish esa bevosita o'quvchining darsdagi ishtirokiga, uning matnga bo'lgan munosabati va faolligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, interfaol o'qitish metodlari adabiyot darslarining mazmunini chuqurlashtirishda va ularni hayotiyashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, interfaol metodlar imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o'quvchilarning ehtiyojlari, idrok darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan interfaol darslar, ularni jamiyatga moslashuvchan, mustaqil fikrlovchi va faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar moslashuvchanligi, turli sensor va kommunikativ vositalar bilan uyg'unlashtirilishi orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilar ham teng huquqli ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb qilinadi.

Masalan, eshitish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun vizual materiallar va yozma topshiriqlarga urg'u berilsa, harakatida muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun guruhlarda ishlashda maxsus rollar ajratilishi mumkin. Nutq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar esa sinkveyn, rasm asosida hikoya tuzish, yozma bahs-munozaralarda qatnashish orqali o'z fikrini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faolligini rag'batlantiradi va ijtimoiy inklyuziyani ta'minlaydi. Shunday qilib, adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat ta'lim sifati, balki imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy moslashuvi va inklyuziv jamiyatda o'z o'rnini topishida ham muhim omil hisoblanadi.

Interfaol metodlar har bir o'quvchi tomonidan o'z qobiliyatlariga qarab o'zlashtiriladi. Bunday metodlar jamoaviy yoki yakka tartibda ishlashga o'rgatadi. Interfaol metodlar talimning asosiy metodlari hisoblanadi: baxs munozaralar o'tkazish o'quv materialaridan foydalanish fikrini erkin qo'rqmasdan bayon eta olish imkonini beradi. Interfaol metodlari turlari juda ko'p bo'lib ularni dars mavzusiga moslab tanlash va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol metodlardan samarali foydalanish uchun o'quvchilarning tayyorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, o'quvchilar darsda faol ishtirok etishi uchun zarur bilimlarni olishi uchun, muloqatga tayyorgarlik mustaqil fikrlash o'z fikrini erkin bayon eta olish va boshqarishdan iboratdir. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish juda muhim sanaladi. Buning uchun o'qituvchi zarur jihozlarini darsga tayyorlash oldindan mukammal tayyorgarlik ko'rish mashg'ulot maqsadini aniq belgilab olish o'quvchilarga samarali foyda beradigan taraflarini kuchaytirish. Bunda darsni qiziqarli tashkil eta olish yangi bilimlarni berish yangi ko'nikmalar shakllantira olish bilimlarini mustahkamlash fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda fanning imkoniyatlarini interfaol usullardan foydalangan holda yoki boshqa usullardan foydalanib dars samaradorligi oshiriladi.

Zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifa o'quvchining ilm olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Bu vazifa esa darslarda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar vositasida amalga oshirilishi samaraliroqdir. Interfaol usullar o'quvchilarga tez muddatda samarali ta'sir etishi, o'quvchilarda mustaqil

fikrlashni, ulardagi ijodkorlik hamda mavzu mohiyatini qiziqib o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Jumladan maktabda adabiyot darslarida ham interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini ta'minlabgina qolmay, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi. Quyida ba'zi interfaol usullarni ko'rib chiqamiz.

"Mozaika" usuli – bo'laklardan yig'ib butun hosil qilishdir. Bu usuldan foydalanish uchun harflar yoki so'zlar oldindan kartochkalarga ya'ni tarqatmalarga yozilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar harflar yoki so'zlar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirib berilgan topshiriqni bajarishlari lozim. adabiyot darslarida she'r, asar, janr nomlari, badiiy san'at turlari berilishi mumkin. Bundan tashqari biror asarga oid rasmlarni qirqib bo'laklab qo'yilsa, o'quvchi uni yig'ib rasm asosida asar haqida ma'lumotlar berishi mumkin. Darsda guruhlar bilan ishlaganda ham bu usuldan samarali foydalansa bo'ladi.

Klaster metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fikringni to'ldir. Bu metod o'quvchilarni yanada ko'proq o'qishiga undaydi. O'qituvchi darsga kirib o'quvchilar bilan salomlashgandan keyin turli rangli qog'ozlardan tayyorlangan Ven diogramasidan foydalangan xolda diogrammaning o'rta qismiga o'tilgan darsga doir birorta so'z yozadi o'quvchilar diogrammaning ikkita tarafiga shu mavzuga mos malumotlar yozishi kerak bo'ladi. Shu metod orqali o'tilgan darslarni mustahkamlash mumkin. Bunda o'qituvchi o'tgan mavzuni o'quvchilar yozgan javoblariga qarab baholaydi. Metod orqali o'quvchilar ko'proq o'qishga erkin fikrlashga o'rganadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida adabiyot darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning bilim darajasi, badiiy tafakkuri va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishida muhim omil ekanligi aniqlandi. Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni badiiy asar mazmunini chuqur anglashga yo'naltirish va tahliliy yondashuvni shakllantirish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, adabiy asarlarni o'qitishda tizimli yondashuv asosida ishlash o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, obrazli tasavvur qilish hamda muallif g'oyasini anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar matn ustida mustaqil ishlash, xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shuningdek, darslarning mazmunan boy va metodik jihatdan puxta tashkil etilishi o'quvchilarda adabiyot faniga nisbatan qiziqishni oshiradi. Natijada ular nafaqat bilim olishga intiladi, balki badiiy asarlarni tahlil qilishga, ularni hayotiy voqelik bilan bog'lashga harakat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etadi.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarining samaradorligi o'qitish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish



hamda ularning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish bilan bevosita bog'liq. Shu asosda adabiyot ta'limini takomillashtirish o'quvchilarning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyot fanida qo'llaniladigan metod va interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituvchini darsga tayyorgarlik qilib kelishga undaydi. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi darsga qiziqish bilan etibor beradi o'tilganlarni yodida yaxshi saqlab qoladi.

Metodlar o'quvchilarga bilim olishlari uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Men doim interfaol usullardan hamda metodlardan foydalanib o'tiladigan darslar samarali bo'lishini bilgan xolda darslarimni metodlar qo'llagan holda o'taman. Bu men va o'quvchilarimga samarali foyda beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulomova M. X, Sobirov N.K Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari. Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami) T2009
2. Bobomurodova A onatili va adabiyot darslarida o'yin topshiriqlardan foydalanish T. Musiqa 2009
3. Adabiyot o'qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
4. A.Safarov, Q.Bahromov Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari. Buxoro. 2004
5. Karimov B. Interfaol metodlar asosida dars tashkil etishning samaradorligi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019, №2. – B. 34–37.
6. Ibragimova N. Zamonaviy darsda interfaol metodlar. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2019. – 148 b.